

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY
INSTITUTI**

BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI



**MAKTABGACHA VA
BOSHLANG'ICH
TA'LIMDA
XXI ASR
KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY
YO'NALISHLARI**

**RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**



BUXORO - 20-NOYABR, 2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI
MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM
METODIKALARI KAFEDRASI**

**“MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA
XXI ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI”**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

**“ СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ
НАВЫКОВ XXI ВЕКА В ДОШКОЛЬНОМ И
НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ”**

Материалы Республиканской научно-практической
конференции

**“MODERN DIRECTIONS FOR DEVELOPING 21ST
CENTURY SKILLS IN PRESCHOOL AND PRIMARY
EDUCATION”**

Materials of the Republican Scientific and Practical Conference

BUXORO - 2024-yil, 20-noyabr

3	Britaniya Kolumbiyasi, Kanada	535	3,5	537	3,6	1	0,9	□	535	3,6	0	1,0
4	Nyufaundlend va Labrador, Kanada	523	3,2	526	3,4	3	1,3	□	523	3,1	0	1,1
5	Janubiy Afrika	384	4,5	382	4,6	-2	1,2	□	384	4,7	0	1,1

▲ Maqsad balli umumiy PIRLS ballidan sezilarli darajada yuqori

▼ Maqsad ko‘rsatkichi umumiy PIRLS ballidan sezilarli darajada past

Mamlakatimiz o‘quvchilarining natijasini tahlil qiladigan bo‘lsak, 57 ta qatnashgan mamlakatlar ichida 49 - o‘rinni egallagan, o‘rtacha ko‘rsatkich 437 ballni tashkil qilgan. Badiiy matnlar ustida ishlashda o‘quvchilarimiz 438 ballni ya’ni umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichdan 1,3 balga yuqorilagan. Axborot matni bilan ishlashda 434 ball bilan umumiy ko‘rsatkichga erishilgan bulsa-da, qatnashgan mamlakatlar o‘rtacha natijasidan 0,9 balga pasaygan.

Shuni aytish kerakki, mamlakatimiz mazkur xalqaro tadqiqotga ilk bor ishtirok etdi. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorlab borish va tajriba-sinov sifatida qatnashish davri 2020-yil – COVID 19, pandemiya vaqtiga to‘g‘ri keldi. Aynan shu uchun mazkur tadqiqot natijalari 5 oy kechikib e‘lon qilindi. 2022-yil dekabr oyida emas, balki 2023-yil may oyiga kelib PIRLS-2021 xulosalari berildi.

**SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF
O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG‘ATNI O‘RGATISH
METODIKASI**

Abdullayeva Feruza Nurillayevna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya masalalariga keng ko‘lamda e’tibor berilmoqda. Shunday ekan, sinergetik yondashuv asosida lug‘atni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik jihatdan to‘g‘rilikni shakllantirish ravon nutqni tuzish usullarini o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur maqolada shu haqda so‘z yuritamiz.

Kalit soʻzlar. sinergetika, hikoya, matn, tinglash, soʻzlash, tahlil qilish, qiyoslash, didaktik vosita, taʼlim samaradorligi, kreativlik, obrazli harakat, interfaol metod.

Аннотация. Сегодня вопросам образования уделяется широкое внимание. Поэтому на основе синергетического подхода развитие словарного запаса, воспитание звуковой культуры речи, формирование грамматической правильности неразрывно связаны с овладением приемами создания беглой речи. Об этом мы поговорим в этой статье.

Ключевые слова. синергетика, рассказ, текст, аудирование, говорение, анализ, сравнение, дидактический инструмент, эффективность обучения, творчество, образное движение, интерактивный метод.

Annotation. Today, educational issues are being widely paid attention to. Therefore, based on a synergistic approach, vocabulary development, education of the sound culture of speech, formation of grammatical correctness are inextricably linked with mastering the methods of creating fluent speech. We will talk about this in this article.

Keywords. synergetics, story, text, listening, speaking, analysis, comparison, didactic tool, educational efficiency, creativity, figurative movement, interactive method.

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi oʻsha jamiyat fuqarolarining maʼnaviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyati darajasiga bogʻliq. Oʻzbekiston taraqqiyotining maʼnaviy-axloqiy va kasbiy asoslari toʻgʻrisida fikr yuritib, istiqlool sharoitida yoshlarning bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birga mustaqil fikrga ega boʻlgan, gʻoyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniqqan, kasbiy mahoratini mustaqil vatanimizning ravnaqi yoʻlida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash lozimligi dolzarb vazifalardan biridir. Shunday ekan, maʼnaviy-axloqiy va kasbiy jihatdan toʻlaqonli shakllangan shaxsda oʻz vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuygʻusi boʻladi. [1;15]

Sinergetik yondashuv – bu murakkab tizimlarning oʻz-oʻzidan oʻzgarishi va rivojlanishi jarayonlarini oʻrganadigan fanning asosiy yoʻnalishi. Ushbu yondashuv

ko‘p turli xil elementlardan iborat tizimlarda qanday qilib yangi tartib va barqarorlik shakllari vujudga kelishini tushuntiradi. U fizika, kimyo, biologiya, ijtimoiy fanlar va iqtisodiyot kabi ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi.

Sinergetika (yunoncha *synergos* – “birgalikda harakat qilish”) tizimlarni o‘zaro ta’sirlar natijasida o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlari orqali rivojlanishini o‘rganuvchi nazariya sifatida shakllangan. Tizimning turli qismlari birgalikda o‘zaro hamkorlikda harakat qilib, yangi holatlarni vujudga keltiradi. Bu jarayonlar ko‘pincha o‘zgaruvchanlik, muvozanat buzilishi yoki inqirozlar paytida yuzaga keladi va natijada yangi tartibga keladi. [2;55]

Ya’ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Albert Enshteyn “Tasavvur-bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan.

Buyuk allomamiz ta’kidlaganlaridek, kishining fe’l-atvori hammadan ko‘ra hayotning dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo‘lgan sifatlar, mustahkam o‘rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Lug‘atni boyitish va faollashtirishda uni sifat jihatdan takomillashtirish dastlabki o‘ringa chiqadi. Bu antonim (o‘tkir-o‘tmas, achchiq-chuchuk), sinonim (o‘tkir - uchi o‘tkirlangan, o‘tkir), ko‘p ma’nolilik (o‘tkir pichoq, achchiq qalampir, achchiq til) kabi hodisalarni tushunish va ularni nutqda faol qo‘llashga taalluqlidir. [4;4] Bolalar narsalar, tabiat hodisalari, insonlar qilmishlarini ko‘rib, ulardagi har xillik va umumiylikni aniqlashni hamda ularning ma’nosi qarama-qarshi yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlar, taqqoslashlar, aniq fe’llar, tashbehlar yordamida nutqda aks ettirishni o‘rganadilar. So‘z birikmasiga sinonim yoki antonimni tanlab olish usullari bolalarga so‘zlarning ko‘p ma’noga egaligini tushuntiradi. Narsalarning funksiyalarini taqqoslash asosida umumlashtiruvchi nomlar (hayvonlar, idish-tovoqlar, transport) shakllanadi.

Lugʻat ishlari atrof-olamdagi doimo kengayib borayotgan narsalar va hodisalar doirasi bilan tanishtirish jarayonida amalga oshiriladigan mashgʻulotlar (ekskursiya, narsalarni namoyish qilish) [3;4];

Lugʻat ishlari bolalarning atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga tayanadigan mashgʻulotlar (sifatlar, xususiyatlar, oʻziga xos jihatlari bilan tanishtirish);

Umumlashtirishlar jarayonida lugʻat ishining hal qiluvchi vazifasi tushunchalarni shakllantirishdan iborat boʻlgan mashgʻulotlar. Nutqiy va lugʻatni rivojlantirishning bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan yagonaligi (qabul qilish, tasavvur qilish, fikrlash). Nutqiy va bilish faoliyatining aniq maqsadni koʻzlagan holda tashkil etilishi, bilish faoliyatini tashkil etish uchun asos sifatida koʻrgazmaliylikning mavjudligi. [6;4]

Bolalarning ona tilida avloddan-avlodga oʻtib kelayotgan xalq maʼnaviy boyliklarini qanchalik meros qilib olishlari, tarbiyalanuvchilarning kelgusida oʻz davrining ilmiy yutuqlarini oʻzlashtira olishlari, ularning insoniyatning ilgʻor sheʼriy va estetik ideallariga sodiqligi, yaʼni mustaqil Oʻzbekistonda demokratik jamiyatning toʻlaqonli quruvchilari boʻla olishlari tarbiyachiga bogʻliqdir.

Lugʻatni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik jihatdan toʻgʻrilikni shakllantirish ravon nutqni tuzish usullarini (gaplarni bogʻlovchilar, leksik takrorlashlar, sinonimlar yordamida bogʻlash vositalari; tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi) oʻzlashtirish bilan uzviy bogʻliqdir. Turli funksiyalarni bajarish bilan bogʻliq dialogli muloqot negizida rivojlangan nutqning barcha tomonlari til ongining shakllanishiga bevosita bogʻliq boʻladi va ular buning uchun bolaning kattalar bilan muayyan shakldagi muloqotiga, toʻgʻrirogʻi, nafaqat tashqi olam va boshqa odamni bilishga qaratilgan muloqotga, balki tilning oʻzini, uning tuzilishi va faoliyatini anglab yetishga qaratilgan muloqotga muhtoj boʻladilar. Lugʻat ishlariga oid dasturlarni amalga oshirish mashgʻulotlar tizimi orqali amalga oshiriladi [7;3].

Boshlangʻich sinf oʻqish kitoblarining yangi nashrlaridagi oʻziga xos xususiyatlaridan biri ularda badiiy asarlarning koʻplab berilishidadir. Jumladan,

mustaqillik, yurt qahramonlari ulugʻ, allomalar, hamda maʼnaviyatimizning oʻzanlarini belgilovchi dolzarb mavzudagi ijtimoiy ahamiyatga ega maqolalar yosh avlod dunyoqarashida oʻziga xos burilish yasaydi.

Maʼlumki, badiiy adabiyot janrlaridan: ertak, hikoya, masal va shu kabilarni boshlangʻich sinflarda oʻqitish keng tadqiq qilingan. Ammo badiiy asarning tadqiq qilish masalalari – ayrim metodik maqolalarni hisobga olmaganda – haligacha oʻrganilgan emas.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida borliq haqida tushuncha va tasavvur hosil qilishda, ularni konkret faktlar, ayrim voqea-hodisalar bilan tanishtirishda badiiy asarlar juda ahamiyatlidir. Badiiy asarlar orqali oʻquvchilarda vatanimiz tabiati, tarixiy sanalar, ijtimoiy hayot, fan va texnika yutuqlari haqidagi bilimlari kengaytiriladi. Bu esa oʻz navbatida oʻquvchilarning mantiqiy tafakkurini oʻstiradi, soʻz boyligini oshiradi.

Yuqoridagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun darslarda oʻrganilayotgan badiiy asardagi turli terminlarni izohlash, uning maʼnosini tushuntirishga eʼtibor berish lozim. Badiiy maqolalar til jihatdan oʻziga xos xususiyatga ega boʻladi. Ularda maxsus atamalar koʻplab uchraydi, soʻzlar aniq ishlatiladi, gaplar puxta tuziladi. Bundan tashqari badiiy asarlar vositasida oʻquvchilar uchun butunlay yangi bilimlar beriladi, baʼzi voqea-hodisalar konkretlashtiriladi.

4-sinf “Oʻqish savodxonligi” darsligida Hidoyat Olimovning “Kitob va boylik” matni berilgan. Ushbu matn tuzilish jihatdan badiiy asar sanaladi. Bu xiladagi matnlar oʻquvchilarga nafaqat kitobni tanishtiradi, balki ularda kitobga muhabbat tuygʻusi shu tariqa shakllanadi. [10;5] Bunday darslarda koʻrgazma sifatida oʻquv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin. Kitob mavzudagi badiiy asarlarni unga mos rasmlar bilan boʻglab oʻqitish kishilarning baxtli hayot uchun intilishlari, ota-bobolarimizning kitobni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi.

Demak, lugʻat oʻrgatish jarayonining har bir nuqtasida har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning har birining yuragiga ijodkorlik bilan mohirona yoʻl topa olishi vaholanki bola shaxsiga taʼlimiy va

tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samarali yo'llarini axtarish, qidirib topish va bu borada ilmiy tatqiqot ishlarini olib borish pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarni tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. -Toshkent-2021.
2. Daminov.O.O. Kasbiy pedagogika 2018 yil.
3. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
4. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.
5. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
6. Nurullayevna, A. F. (2022). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(4), 406-409.
7. Курбанова, Ш. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса. *новые педагогические исследования: сборник статей IV*, 20.
8. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.

Yuldashev Bahodir Narzullayevich BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI GEOMETRIK MATERIALLAR BILAN TANISHTIRISHDA KREATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	268
Xasanova Sarvinoz Ixtiyor qizi BIRLAMCHI XARAKTERDAGI NUTQ VA ESHITUV NUQSONLARIGA EGA BO'LGAN BOLALAR BILAN LOGOPEDIK ISH XUSUSIYATLARI.....	273
Axmedova Shoiraxon Bilalxanovna JAHON TA'LIM MUASSASALARIDA, MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA O'QITUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI.....	278
Mirzayev Siddiqbek Hamza o'g'li OLIY TA'LIMDA REKLAMA, REKLAMA AGENTLIK LARI FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV.....	285
Ostonov Jasur Shopirjonovich TA'LIM OLUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	290
Axmedova Shahnoza Fayzullo qizi O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARINING KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH.....	296
Bobojonova Iroda Yusupjon qizi BLUM TAKSONOMIYASI. O'QITISH JARAYONIDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY AHAMIYATI.....	301
Qurbonova Iqbol Usmonovna UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	308
Qurbonova O'lmasoy Usmonovna OLIY TA'LIMDA "TARBIYA FANINI O'QITISH METODIKASI" FANINI TASHKIL ETISH JARAYONIDA TALABALARNI MUSTAQIL FIKLASHGA O'RGATISH MUAMMOLARI.....	312
Qurbonova O'lmasoy Usmonovna, Oripova Madinabonu Akmal qizi TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHI O'ZLASHTIRMASLIGINI YUZAGA KELTIRUVCHI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLAR.....	316
Rajabova Kimyoxon Farmonovna PIRLS – XALQARO BAHOLASH DASTURI NATIJALARI: ZAMONAVIY TA'LIM RIVOJIGA YANGICHA NIGOH.....	322
Abdullayeva Feruza Nurillayevna SENERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG'ATNI O'RGATISH METODIKASI.....	327
Sa'dullayeva Hurriyat Hojiqurbonovna DARSLARNI "4K" MODEL ASOSIDA TASHKIL ETISHDA KOMMUNIKATIV VA KOLLOBORATIV MUHITDAN FOYDALANISH VA HAMKORLIKDA O'QITISH USULLARI.....	333

3-YO'NALISH: TA'LIM OLUVCHILARDA KRITIK (TANQIDIY) FIKLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Jabbarova Zuhra Omondullayevna TA'LIM OLUVCHILARDA KRITIK FIKLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.....	338
Xamrayeva Diyora Burxon qizi TA'LIMNING XALQARO MIQYOSDA RIVOJLANISHIDA PEDAGOG LAR INNOVATSION FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI.....	345